



**Mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda ikki tomonlama munosabatlarning
tutgan o'rne: O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari misolida**

Kamoliddin Sulaymanov Tohir o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti

Magistratura bosqichi talabasi

sulaymanovkamoliddin2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi chegarasini demilitatsiya qilish bosqichlari va uni yakunlovchi hujjatlar to'g'risida so'z boradi. Shu o'rinda maqolada bu jarayonda qilingan ishlar va qabul qilingan hujjatni ratifikatsiya qilish bosqichlari haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Delimitatsiya, demarkatsiya, chegara shartnomalari, ratifikatsiya.

Davlat chegarasi - bu davlat hududining yer yuzasidagi, suvdagi, havo fazosidagi va yer ostidagi qonuniy belgilangan chegarasidir. U davlatning suvereniteti (mustaqil boshqaruv huquqi) qamrab olgan hududni boshqa davlatlar yoki neytral hududlardan ajratib turadi. Davlat chegarasining asosiy xususiyatlari bu uning huquqiy belgilanganligi va doimiyliги bilan belgilanadi.

Ma'lumki davlatlarda chegara quruqlik, suv, havo fazosi va yerosti chegarasi bilan belgilanadi va bu chegaralanish nafaqat ichki qonunlar bilan balki ikki yoki ko'p tomonlama shartnomalar bilan va xalqaro shartnomalar bilan tartibga solinadi. "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi rejimi to'g'risida"gi Nizomning 1-bobida aytilganidek "Davlat chegarasi - O'zbekiston Respublikasining hududi doirasini



(quruqlikni, suvni, yer qa'rini va samoviy hududni) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iborat"¹ ligi belgilab qo'yilgan. Bu chegaralarning har biri juda muhim va davlatning xavfsizlik, iqtisodiy, hududiy va savdo-bojxona nuqtai nazaridan ahamiyatlidir. Albatta bunda chegaralarni belgilash ularning xavfsizligini ta'minlash masalasi juda ham dolzarb, shu sababli mamlakatlar qo'shni davlatlar bilan belgilangan shartnomaga muvofiq chegaralarida belgilangan muddatlarda tekshiruvlar o'tkazib turishadi. Zamonaviy dunyoda chegaralarni aniqlash ularni nazorat qilish murakkab masala ekanligi hechkimga sir emas ammo undan oldin amalga oshirilishi kerak bo'lgan bir nechta ishlar xususan demiliyatsiya, demarkatsiya kabi murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari BMT Nizomining 102-moddasiga muvofiq "Birlashgan Millatlar Tashkiloti Nizomi kuchga kirganidan keyin BMTga a'zo har bir davlat tomonidan tuzilgan har qanday shartnoma yoki xalqaro kelishuv iloji boricha tezroq BMT Kotibiyati tomonidan ro'yxatga olinishi va u tomonidan e'lon qilinishi lozim".²

Xususan, O'zbekistonning ham eng uzun quruqlik chegarasi Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradir va bu chegaraning umumiy uzunligi 2351 kmga cho'zilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi chegaradosh davlatlar bilan chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilishning huquqiy asoslarini "O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida"gi qonun tartibga soladi. Ushbu qonunga ko'ra delimitatsiya qilish — O'zbekiston Respublikasi va chegaradosh davlatlar o'rtasida tuzilgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq Davlat chegarasi chizig'ini aniqlash, uning o'tishini tavsiflash va uni xaritada grafik tarzda aks ettirish;³

Demarkatsiya qilish — O'zbekiston Respublikasi va chegaradosh davlatlar o'rtasida tuzilgan delimitatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalariga muvofiq chegara belgilarini o'rnatish yo'li bilan joylarda Davlat

¹ <https://lex.uz/docs/-7172087>

² <https://www.un.org/en/about-us/un-charter/full-text>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-6605257>



chegarasi chizig'ini belgilash;⁴ ekanligi keltirib o'tilgan ya'ni sodda tilda aytganda delimitatsiya davlat chegara chizig'ini aniqlash va demarkatsiya davlat chegara belgilarini o'rnatish orqali joylarda davlat chegarasini belgilashdir.

Qozog'iston Respublikasi bilan chegarani delimitatsiya qilish ishlari mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlangan. Xususan 1998-yil 31-oktabrda imzolangan "Abadiy do'stlik to'g'risida"gi shartnomada chegarani delimitatsiya qilish uchun amaliy qadamlar tashlangan edi. Xususan ushbu shartnomaning 2-moddasida mavjud chegarani davlat chegarasi asosi deb tan olinishini va qo'shma chegaradagi hamma masalani hal qilish uchun qo'shma komissiya tuzilishi aytib o'tilgan edi.⁵ Shu sanadan boshlab qo'shma komissiya o'rganish ishlarini olib bordi va 2001-yil 16-noyabrda Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida Qozog'iston-O'zbekiston chegarasi to'g'risida Shartnoma imzolangan unga ko'ra ikki davlat o'rtasidagi chegaralarning 97%i delimitatsiya qilindi biroq, Bag'is qishlog'i, Toshkentdan taxminan yetti kilometr shimolda joylashgan, alohida e'tiborga molik hudud hisoblangan. Bu hudud Qozog'istondan O'zbekistonga ijaraga berilgan yerlar tarkibiga kiradi, biroq mustaqillikdan keyin u yuridik noaniqlikda qolib ketgan. Aholining aksariyati etnik qozoqlar bo'lib, ular Qozog'iston tarkibida bo'lishni afzal ko'rishgan, biroq hudud O'zbekiston yurisdiksiyasi ostida bo'lgan, aholi maoshlari ko'pincha O'zbekiston tomonidan to'langan va soliqqa tortilgan. Hududda O'zbekiston politsiyasi patrullik qilgan.⁶ 2002-yil 9-sentabrdagi Qozog'iston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida "Qozog'iston-O'zbekiston davlat chegarasining ayrim uchastkalari to'g'risida" Shartnoma imzolandi. Bir necha yil davom etgan muzokaralardan so'ng, 2003-yil iyul oyida Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi chegara delimitatsiyasi bo'yicha kelishuvga nihoyat erishildi. Chegara delimitatsiyasi yakunlangach, Bag'is qishlog'i Qozog'iston

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-6605257>

⁵ <https://lex.uz/docs/-2553833>

⁶ Central Asia: Border Disputes and Conflict Potential ICG Asia Report No. 33, 4 April 2002



tarkibiga qoʻshildi, Turkstanets esa Oʻzbekiston tarkibiga kiritildi.⁷ Ammo ikkala davlat chegarasidan tashqari Qirgʻiz Respublikasi bilan tutash chegara nuqtasi boʻlib bu chegara nuqtasini aniqlash ishlari olib borildi va 2001-yil 15-iyundagi uch davlat oʻrtasidagi Shartnoma bilan belgilandi ammo Turkmaniston Respublikasi bilan muzokaralar jarayoni ancha uzoq davom etdi va 2017-yilga kelibgina uch tomonlama Shartnoma asosida belgilab qoʻyildi. Shu sababli chegara shartnomasini belgilash va delimitatsiya jarayoni oʻsha paytlarda jadal olib borilgan boʻlsada, uni demarkatsiya qilish jarayoni ichki va tashqi omillar tufayli kechiktirib yuborildi. 2023-yil 4-iyul kuni Qozogʻiston Respublikasi va Oʻzbekiston Respublikasi oʻrtasidagi Qozogʻiston-Oʻzbekiston davlat chegarasini demarkatsiya qilish toʻgʻrisidagi shartnoma kuchga kirdi. Ushbu Davlatlararo shartnoma Oʻzbekiston Respublikasining “Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari toʻgʻrisida”gi Qonuni 18-moddasiga asosan ratifikatsiya qilindi. Ushbu shartnoma 2022-yil 22-dekabrda Toshkent shahrida ikki davlat prezidentlari tomonidan imzolangan va har ikkala mamlakat parlamentlari tomonidan ratifikatsiya qilingan. Mazkur hujjatning kuchga kirishi Qozogʻiston va Oʻzbekiston oʻrtasidagi davlat chegarasini demarkatsiya qilish boʻyicha 19 yil davom etgan jarayonning toʻliq yakunlanganini anglatardi.⁸ Shartnomaga koʻra ikkala taraf har oʻn yilda bir marta davlat chegara chizigʻini birgalikda tekshirishi, zarur hollarda muvazotlar oʻzgartirilishi yoki ayrim uchastkalarda tekshiruvlar olib borilishi belgilangan. Bunga qoʻshimcha sifatida yuqorida taʼkidlab oʻtilgan ishlarni amalga oshirish uchun Qoʻshma komissiya tuzish va har bir tekshiruv Protokol bilan rasmiylashtirilishi belgilab qoʻyilgan. Chegara belgilari uchun esa har bir taraf oʻzi oʻrnatgan chegara belgilariga javob berishi, uning saqlanishi va holati uchun javobgarlikni oʻz boʻyniga olishi va belgi siljishi, yoʻqolishi aniqlangan taqdirda boshqa tomon yozma xabardor qilinishi va taʼmirlash ishlari amalga oshirilishi belgilab qoʻyilgandir. Shundan soʻng BMT Bosh Assambleyasining 79-sessiyasi arafasida Tashkilot Nizomining 102-

⁷ <https://jamestown.org/program/uzbekistan-bulldozes-settlements-along-border-with-kazakhstan/>

⁸ https://qazinform.com/news/demarcation-of-kazakh-uzbek-state-border-fully-completed-mfa_a4088059?utm-source=.com



moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasida O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasini demarkatsiya qilish to'g'risidagi shartnomani ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish uchun BMT Kotibiyatiga zarur hujjatlar taqdim etildi.⁹

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi va Qozog'iston Respublikasi o'rtasidagi chegarani aniq belgilab olishga qaratilgan hujjatlarni qabul qilish, imzolash ischi guruh xulosalari va o'rganishlari va davlat rahbarlari va ularning qo'l ostida faoliyat yuritayotgan katta guruhning samarali faoliyati natijasidir. Chunki chegara shartnomalarini tuzish ularni aniq belgilab olish qiyin va uzoq vaqt talab qiladigan masu'liyatli ish ekanligi va chegaralarni belgilash davomida olib borilgan ishlar ko'lami va sifati aynan ushbu omillarga bog'liq.

⁹ https://uzembassy.kz/en/article/treaty-between-the-republic-of-uzbekistan-and-the-republic-of-kazakhstan-on-the-demarcation-of-the-uzbek-kazakh-state-border-is-submitted-to-the-un-secretariat-for-registration?utm_source=.com